



_____ maktabgacha va
_____ maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
_____ maktabgacha ta'lim tashkiloti
_____ tayyorlov guruh tarbiyachisi

_____ning
20__-__ yilgi sog'lomlashtirish
_____ uchun

FAN VA TABIIAT

FAOLIYAT ISHLAGANLARI

YOZ DAVRI

TAYYORLOV GURUH

“TASDIQLAYMAN”

_____-MTT direktori

**Yoz davri tayyorlov guruhlarga fan va tabiat faoliyatlari uchun
ISH REJA**

Hafta kunlari	Mavzu
IYUN	
1-hafta	Tabiatda suvning aylanishi (suv bilan tajribalar)
2-hafta	Xona o‘simliklarini parvarish qilish
3-hafta	“Dunyodagi eng g‘aroyib narsa” (suv bilan tajribalar)
4-hafta	Maydonchaga sayr (Yoz fasli haqida suhbat)
IYUL	
1-hafta	O‘simliklarni ko‘chirib o‘tkazish
2-hafta	“Qum, loy va toshni solishtirish”
3-hafta	Yoz fasli haqida suhbat
4-hafta	Akvariumdagi baliqni kuzatish
AVGUST	
1-hafta	Bolalarni quyon bilan tanishtirish
2-hafta	“Dengiz va delfin” o‘yinini o‘ynaymiz
3-hafta	“Fasllar” o‘yini
4-hafta	“Sabzilar va gilolar” o‘yini

Mavzu: Tabiatda suvning aylanishi (suv bilan tajribalar)

Maqsad: “Tabiatda suvning aylanishi” tushunchasi bilan tanishtirish, “Akvatoriya” tushunchasi. Tabiat hodisalarining sabab oqibatlarini belgilashga o‘rgatish. Ekologiyaning buzilishiga ta’sir qilayotgan sun’iy sabablar haqida ilk tasavvurlarini shakllantirish. Suv havzalari (buloq, daryo, dengiz, ko‘l va h.k.), ularning inson hayoti va jonli tabiatga ta’siri haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Bolalarni globus yoki xaritada shartli belgilar ranglariga ko‘ra joylarni farqlashga o‘rgatish. Tabiat resurslari sifatida suvga nisbatan ehtiyotkorlikni tarbiyalash. Tabiatda o‘zini tutish qoidalari rioya qilishlarini mustahkamlash.

Kutilayotgan natija:

“Tabiatda suvning aylanishi” tushunchasi bilan tanishadilar, tabiat hodisalarining sabab oqibatlarini belgilashga o‘rganadilar.

Zarur jihozlar: rasmi xat, rasm-sxema, jonli, jonsiz tabiat rasmlari, globus; tabiatda suvning aylanishi maketi; tuproqli(iflos) suv, varonkali bankalar (4 tadan); doka, fil, qushlar. “Tabiatda o‘zini tutish qoidalari” belgilari.

Mazkur mavzu bo‘yicha ta’lim berish.

Tarbiyachi: Suvning aylanishiga xatni olib kiradi.

Tarbiyachi: Bolalar yig‘ib rasmi xat oldik. Keling o‘qib ko‘ramiz.

“Adirda toza suv qancha oqar edi. Daryoning qirg‘og‘iga o‘yinchoqlar ishlab chiqaruvchi kaxxona qurildi. Chalkintoylarni xursand qilib yangi o‘yinchoqlar paydo bo‘la boshladi. Ko‘p daryodan toza suv olib iflos suvni chiqara boshladi. Daryoda suvning iflos bo‘lishi xona suvni ko‘p ishlatgani uchun endi suv kamaydi. Daryodagi barcha hayvonlar qushlar va hayvonlar esa undan suv ichmay qo‘ydilar. Daryo halqasida qushlar qoldi! Yordam bering! Tomchivoy».

Bolalar, Tomchivoy va barcha hayvonlar to‘xtatgan qushlarni qaytarishga yordam beramiz! Faqat, keling avval kimga nima kerakligini eslab olaylik!

2. “Suv kimga kerak?” ta’limiy o‘yin.

Bolalar rasm sxema yoniga keladilar. Juda ajoyib tabiatda suv zarur bo‘lganlarini tanlab olamiz. Tanlangan rasmlarni rasmlar yoniga yotqizamiz va suv unga nima uchun kerakligini tushuntiradilar.

Tarbiyachi bolalarga globusni ko‘rsatadi va tushuntiradi.

Tarbiyachi: Bolalar nima deb o‘ylaysiz, yerda suv qancha? (Bolalar javoblari) Globusda yerda suv va quruqlik qancha joyni egallaydi? (Bolalar javoblari) Quruqlik qanday rang bilan belgilangan? Suv-chi?(yashil rang bilan quruqlik belgilangan, moviy rangda esa-suv).

Tarbiyachi: Yerda nima ko‘p, suvmi yoki quruqlikmi? (Bolalar javoblari) Suvni aytish mumkinmi?(Erda quruqlikdan ko‘ra suv ko‘proq)

Tarbiyachi: Globusdagi moviy rangli masofa “Akvatoriya” deyiladi. U suv havzalaridan iborat. Qanday suv havzalarini bilasiz? Globusda eng ko‘p masofani qaysi suv havzalari egallaydi? (daryo, ko‘l, ariq, dengiz, okean. Eng ko‘p qismini okean va dengizlar, kamroq qismini daryo, ko‘l, ariq egallaydi)

Tarbiyachi: Dengiz va okeanlardagi suvlar bilan daryo va ko‘llardagi suvlarning farqi nimada? Inson qanday suvni ko‘proq ishlatadi? (Chuchuk suvni inson ko‘p miqdorda ishlatadi)

Tarbiyachi: Chuchuk suvni inson juda ko‘p miqdorda ishlatadi, uning zaxiralari yerda

doimo to'lib turadi. Bu qanday sodir bo'lishini bilishni istaysizmi?

Tabiatda suvning aylanishini tushuntirishga harakat qilaman.

Tarbiyachi: Tasavvur qiling, siz suv havzasiga keldingiz. Juda ko'p tomchi dugonachalar o'ynab, maza qilmoqdalar. Quyosh juda qattiq qizdirmoqda. Tomchi dugonachalar esa bittadan bo'lib havoga uchib ketadilar. Ular juda balandlarga uchib ketadilar. Yerdan juda balandda havo soviy boshlaydi. Tomchilar yana birlashadilar. SHunda bulutlar hosil bo'ladi. SHamol ularni yerga haydaydi. Bulutlar rangi to'qlashib, og'ir bo'lib qoladi. Ulardan yomg'ir hosil bo'ladi. Yomg'ir - suvning kichik tomchisi. Ular yerga tushib, o'simliklar va hayvonlarni sug'oradilar va yerni namlaydilar. Yer ostida tomchilar yer osti jilg'alarini hosil qiladilar. Jilg'alar suv havzalariga quyiladilar.

Yer yuzida suv zaxiralari ana shunday yo'l bilan to'lib boradi. Bu jarayon tabiatda suvning aylanishi deb aytiladi, "aylana" so'zidan, suv aylana bo'ylab harakat qiladi. Yerdan esa yerga, osmondan esa yerga. Kim tomchining harakatlarini aytib bera oladi? Bora bora...

3. "Tomchilar bo'ylab harakat qilmoqdalar" harakatli o'yin

Tarbiyachi: Bolalar biz ham tomchilarga aylanib, ularning sayohatlarini o'ynaymiz.

Yomg'ir yogayotgan paytda sadolari yangraydi

Men bulut onamning esatomi esatomi bolalar bo'lasiz. Sizing sayohatga chiqish vaqtingiz bo'ldi

Musika sadolari ostida yuguradilar, yuguradilar va o'ynaydilar. Ona bulut harakatlarni ko'rsatib turadi.

Tomchilar yerga uchib ketadilar. Ular uchish ular uchun zerikarli tuyuldi. Ular hammasi yig'ilib kichkina quvnoq bo'lib oqib ketdilar.

"tomchi"-bolalar qo'llarini ushlashib oqib ketadilar.

Irmoqchalar uchrashib, katta daryo bo'ladi.

Irmoqchalar birlashib ketma-ketlikda zangoriya oqib ketadi.

Tomchilar katta daryoda oqmoqdalar. Daryo qilib oqib ketadi.

Bolalar doira hosil qilib, aylana bo'ylab harakat qiladilar.

Tomchilar okeanda suzib-suzib, ona bulutning uyiga qaytishlari to'g'risida ogohlantirganini eslab qoldilar. Quyosh qattiq qizib, tomchilar yengil bo'lib qoldilar va yuqoriga uchdilar. Quyosh nurlari ostida tomchilar aralanib top-toza va quvnoq bo'lib ona bulut yoniga qaytdilar.

Bolalar oyoqchalariga o'tirib olib, qo'llarini yuqoriga ko'taradilar.

4. Tajriba

Tarbiyachi: Bizning tomchivoyga iflos daryoda yashash qiyin bo'ladi. Unga qanday yordam beramiz? Balki o'yinchoqlar va boshqa narsalar ishini to'xtatarmiz?(Mumkin emas! O'yinchoqlar, mashina, idish-tovoqlar bo'lmaydi)

Tarbiyachi: Unda bolalar, korxona rahbariga tashqariga chiqarayotgan suvni qanday tozalashni o'rgatamiz. Biz buni bilamizmi? Suvni tozalash jarayonini Nigora Jo'raevna(tarbiyachi yordamchisi) kinoga tushiradilar, kasetani esa korxona rahbariga jo'natamiz.

Suvni nima yordamida tozalashimiz mumkin? (filtr yordamida)

Tarbiyachi: Biz filtrimizni nimadan qilamiz? (paxta va dokadan)

Bolalar ikkitadan guruhlarga bo'linib oladilar, o'z joylarini egallaydilar va suvlarini tozalash (filtrlash)ni boshlaydilar.

Tarbiyachi: Iflos suvni filtrlash natijasi qanday bo'ldi? Qaranglar- chi hammada tajriba muvaffaqiyatli o'tdimi? Nima uchun Farxod va Rustamning suvlari hammanikidan tozaroq chiqdi? Filtrda nima qoldi? (ularning filtrlarida dokaning qavatlar ko'p. Filtr qanchalik qalin bo'lsa, shunchalik suv toza bo'ladi. Filtrda ifloslar qolgan)

Tarbiyachi: Zavod direktoriga quvurlardan iflos suv chiqmasligi uchun qanday maslahat berishimiz mumkin? (quvurlarga filtr qo'yish kerak)

5. "Tabiatda o'zini tutish qoidalari" ta'limiy o'yin o'yin

Tarbiyachi: Endi xatning mazmuniga qaytamiz. Oqar suvlarni filtr bilan tozalash mumkin. Bizning tomchilar va boshqalarga suv havzasida yashash qulay bo'lishi uchun shuning o'zi yetarlimikan? Daryo uchun yana nima qilish mumkin? Kelinglar "Tabiatda o'zini tutish qoidalari"dan rasimga ta'luqli bo'lgan belgilarni tanlab olamiz.

Bolalar belgilarni o'zidan kechiradilar: konserva bankalar, butilka, kapalaklar tutish uchun nima qilish kerak, qamish, filtrlar.

Bolalar belgilarni o'zidan kechiradilar: konserva bankalar, butilka, kapalaklar tutish uchun nima qilish kerak, qamish, filtrlar.

Tarbiyachi: Endi bizning xatning mazmuniga qaytamiz. Oqar suvlarni filtr bilan tozalash mumkin. Bizning tomchilar va boshqalarga suv havzasida yashash qulay bo'lishi uchun shuning o'zi yetarlimikan? Daryo uchun yana nima qilish mumkin? Kelinglar "Tabiatda o'zini tutish qoidalari"dan rasimga ta'luqli bo'lgan belgilarni tanlab olamiz.

Bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- Bolalar qanday xat olishdi?
- Globusda yashil rang nimani ifodalaydi?
- Suvni nima yordamida tozalash mumkin?
- Filtrni nimadan qilish mumkin ekan?
- Tabiatda suv qanday aylanar ekan?
- Tabiatda o'zini tutish qoidalari nimalardan iborat?



Xona o'simliklarini parvarish qilish

Maqsad: O'simliklarni parvarish qilish usullari va ularning tartibi to'g'risidagi bolalar bilimlarini aniqlash. Tuproqni yumshatish usulini mustahkamlash. Bolalarni parvarishning yangi turi-tuproqni o'g'itlash usuli bilan tanishtirish. Bolalarning o'simliklarga qiziqishini, ularni kuzatib borish va parvarish qilish istagini tarbiyalashni davom ettirish. Bolalarning so'z boyligiga o'g'it (oziqlantirish) degan so'zni kiritish.

Kutilayotgan natija: O'simliklarni parvarish qilish usullari va ularning tartibi to'g'risidagi bilimlarga ega bo'ladilar.

Zarur jihozlar: Har bir bolaga bittadan o'simliklar, kleyonka, tuproqni yumshatiladigan tayoqchalar, latta;

Har bir stolga suvli tog'oracha, pulberizator, qaychi, chilobchin qo'yiladi. Tarbiyachi stolida o'g'itli paket va eritma qo'yilgan stakanchalar.

Mashg'ulotning borishi: Bolalar, yenglaringizni shimarib, joy-joylaringizga o'tirib oling. Bugun xona o'simliklarini parvarish qilamiz, lekin oldin buning uchun nima qilish kerakligini bir eslab ko'raylik (bolalar parvarish usullarini aytib o'tadilar). Ma'lumki, biz sizlar bilan tuproqni yumshatishni bilib olgan edik.

-Bolalar, tuproqni yumshatish kerak? (Yumshoq tuproqdan suv yaxshi o'tib, unda ildiz o'sishi oson bo'lishi uchun)

-Tuproqni nima bilan yumshatish kerak?

- Nega tayoqchalarni tuproqqa shikast yetkazmaslik uchun).

-Tuproqni qanday qayg'itish kerak? Nega to'g'itib bo'ladi?

Tarbiyachi: to'g'ri, bolalar, tuproqni yuvib, yuvishga yaqin joyi sayozgina, poyasidan narirog'i esa chuqurroq qayg'itish kerak. O'simliklarni qanday qilib yuvib, tozalash kerak?(yirik barglari latta bilan yuvib, mayda bargli o'simliklar tog'orachaga qo'yilib, tuprog'i yuvilib klenka ustiga klenka yoziladi, katta chilobchidan suv quyib sug'oriladi). Nega xona o'simliklarni parvarish qilamiz?(ular chiroyli bo'lib turishi yaxshi bo'lishi uchun)

Bolajonlar, parvarish qiladigan o'simliklarni kuzatib borib, ularni qanday o'zgarishlar bormi?(yorongulda yangi barglar, balzamondan yangi barglar bo'libdi)

Tarbiyachi: bahor fasli kelishi bilan o'simliklar yashay boshlaydi. Ular yaxshi o'sib gullaydigan bo'lishi uchun, ularga o'g'it solib, sug'orish kerak bo'ladi. Buning uchun kukun holida bo'ladigan maxsus o'g'it bor. Lekin, tuproqqa solish mumkin emas, avval uni suvda eritish kerak. O'simlik sug'orilganidan keyin haftasiga bir marta ana shunday eritma bilan oziqlantirib turiladi, sug'orilgan eritma chuqurroqqa yaxshiroq singiydi. Stolda o'g'it eritmasi solingan idishchalarda o'g'it solinadi. Siz o'simliklaringiz barglarini artib chiqqaningizdan keyin tuprog'ini yuvib, tuproqqa shu eritmalarini purkaysiz, mayda bargli o'simliklarni esa tog'orachaga yozib, undan suv quyib turib yuvasiz. Katta o'simlik uchun ko'proq, kichik o'simlik uchun kamroq miqdorda eritma kerak bo'ladi. O'g'it eritmalarini ishlatib bo'lganingdan keyin idishchalarni joyiga qo'yib, o'z ish joyingizni yig'ishtirib oling, o'simliklarni esa turadigan joyiga olib borib qo'ying.

Tarbiyachi bolalar qilayotgan ishlarini nazorat qilib boradi, yo'l-yo'riq ko'rsatadi, ularga yordam berib turadi, ishni yaxshi uddalayotgan bolalarni rag'batlantirib turadi. Mashg'ulot oxirida tarbiyachi mavzuni mustahkamlash uchun bolalarga quyidagi

savollar bilan murojat qiladi:

- Bugun nimalarni o'rganib oldingiz?
- Nima uchun o'simliklarni oziqlantirishimiz kerak?
- O'g'it qanday tuproqqa tushishi kerak?
- O'simliklar o'sib turgan tuvakka qancha eritma quyish kerak?

Tarbiyachi: demak, nam tuproqqa o'g'itni sug'orishdan keyin beriladi, o'simlikning katta-kichikligiga qarab, unga yarim stakan yoki butun bir stakan eritma quyiladi. Siz bugun o'simliklarni oziqlantirib chiqdingiz, keyinchalik bu ishni navbatchilar xaftasiga bir martadan bajarib boradi. Bir kun ilgari men chelakda o'g'itni eritib qo'yaman, navbatchilar Shundan olib o'simliklarni oziqlantirib chiqadi. Bugun mashg'ulotda nimalarni bilib olganingiz haqida uyda onalaringizga aytib bering .

Bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

Bugun nimalarni o'rganib oldingiz?

- Nima uchun o'simliklarni oziqlantirishimiz kerak?
- O'g'it qanday tuproqqa tushishi kerak?
- O'simliklar o'sib turgan tuvakka qancha eritma quyish kerak?



veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

[Zokirjon Admin](http://Zokirjon.com) bilan

+99891-328-88-38 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.


Tayyorlov guruhlariga yoz davri fan va tabiat faoliyat ishlanmalarini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

[@maktabgacha_tt](https://t.me/maktabgacha_tt)

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT qilib beriladi.**

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT QILMANG.